

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA EMOTSIYANI IFODALOVCHI LEKSIK BIRLIKLARNING SEMANTIK TAHLILI VA ULARNING O'ZARO TARJIMA XUSUSIYATLARI

Qambarova Hulkar

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi

Ilmiy rahbar: Yusupova Nafisa

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillarida emotsiyani ifodalovchi leksik birliklarning semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Har ikki tilga xos emotsional birliklarning ma'no qatlamlari, ularning konnotativ va denotativ jihatlari o'rganiladi. Shuningdek, ushbu birliklarni tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan asosiy muammolar, jumladan ekvivalentlikni ta'minlash, muvofiqlik darajasi hamda madaniy farqlar bilan bog'liq masalalar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari esa emotsional leksikani tarjima qilishda semantik moslikni saqlash muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Tayanch so'zlar: emotsiya, leksik birlik, semantika, tarjima, ekvivalentlik, konnotatsiya, denotatsiya, madaniy tafovut

Abstract. This article analyzes the semantic features of lexical units expressing emotion in English and Uzbek languages. The semantic layers of emotional units specific to both languages, their connotative and denotative aspects are studied. It also analyzes the main problems that arise in the process of translating these units, including issues related to ensuring equivalence, the degree of compatibility, and cultural differences. The results of the study show that maintaining semantic compatibility is of great importance in the translation of emotional vocabulary.

Keywords: emotion, lexical unit, semantics, translation, equivalence, connotation, denotation, cultural difference

Аннотация. В данной статье анализируются семантические особенности лексических единиц, выражающих эмоции в английском и узбекском языках. Изучаются смысловые пласты эмоциональных единиц, характерных для обоих языков, их коннотативные и денотативные аспекты. Также анализируются основные проблемы, возникающие в процессе перевода этих единиц, включая вопросы, связанные с обеспечением эквивалентности, уровнем соответствия и культурными различиями. Результаты исследования показывают, что сохранение семантического соответствия имеет важное значение при переводе эмоциональной лексики.

Ключевые слова: эмоция, лексическая единица, семантика, перевод, эквивалентность, коннотация, денотация, культурное различие

Kirish

Til insonning ichki kechinmalari, his-tuyg'ulari va emotsiyalarini ifodalashga xizmat qiladigan eng muhim vositalardan biridir. Har bir til o'ziga xos tarzda emotsional holatlarni ifodalaydi va bu jarayon tilning leksik tizimi orqali amalga oshadi. Ingliz va o'zbek tillari turli til oilalariga mansub bo'lganligi sababli, ularda emotsiyani ifodalovchi leksik birliklar semantik jihatdan ham, qo'llanish doirasi jihatidan ham farqlanadi.

Zamonaviy lingvistika, xususan, semantika va tarjimashunoslik yo'nalishlarida emotsional leksikani o'rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki emotsiyalarni

to'g'ri tarjima qilish nafaqat til birliklarini, balki madaniy kontekstni ham chuqur tushunishni talab qiladi.

Ushbu maqolaning maqsadi ingliz va o'zbek tillarida emotsiyani ifodalovchi leksik birliklarni semantik jihatdan tahlil qilish hamda ularning tarjima jarayonidagi o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Asosiy qism

1. Emotsional leksikaning semantik xususiyatlari

Emotsiyani ifodalovchi leksik birliklar tilning muhim qatlamlaridan biri bo'lib, ular insonning ichki holatini aks ettiradi. Bunday birliklar denotativ (asosiy ma'no) va konnotativ (qo'shimcha, hissiy rang) ma'nolarga ega bo'ladi.

Masalan, ingliz tilidagi happy, sad, angry kabi so'zlar bevosita emotsiyani bildiradi. O'zbek tilida esa xursand, xafa, jahli chiqqan kabi birliklar mos keladi. Biroq ularning semantik hajmi har doim to'liq mos kelavermaydi. Masalan, ingliz tilidagi upset so'zi o'zbek tilida vaziyatga qarab xafa, bezovta, tushkun kabi turli variantlarda tarjima qilinadi. Bu holat emotsional leksikaning ko'p qatlamli semantik tuzilishga ega ekanligini ko'rsatadi.

2. Konnotatsiya, denotatsiya va madaniy omillar

Emotsional leksikaning semantik tahlilida denotativ va konnotativ ma'nolar o'zaro chambarchas bog'liq holda namoyon bo'ladi. Denotativ ma'no so'zning asosiy, lug'aviy mazmunini bildirsa, konnotativ ma'no uning hissiy-ekspressiv va baholovchi jihatlarini ifodalaydi.

Masalan, ingliz tilidagi proud so'zining denotativ ma'nosi o'zidan yoki boshqalardan mamnun bo'lishni anglatadi. Bu ma'no o'zbek tilida faxrlanmoq orqali ancha aniq ifodalanadi. Biroq konnotativ jihatdan qaralganda, o'zbek tilidagi mag'rur so'zi ayrim holatlarda salbiy tus (kibr, o'zini baland tutish)ni ham bildirishi mumkin. Demak, denotativda moslik mavjud bo'lsa-da, konnotativda farqi tarjimada muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu kabi holatlarni boshqa birliklarda ham kuzatish mumkin. Masalan, sad so'zi denotativ jihatdan xafa deb tarjima qilinadi. Ammo konnotativ darajada u tushkun, ma'yus kabi kuchliroq emotsional ranglarga ega bo'lishi mumkin. Bu esa tarjimada birgina variant bilan cheklanib qolmaslik zarurligini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, ayrim emotsional birliklar denotativ jihatdan tushunarli bo'lsa-da, konnotativ va madaniy jihatdan bevosita tarjima qilinmaydi. Masalan: *break someone's heart* → ko'nglini sindirmoq (denotativ va konnotativ jihatdan yaqin moslik) *feel blue* → tushkunlikka tushmoq (denotativ tarjima emas, balki ma'no asosida beriladi)

Yana bir misol sifatida butterflies in one's stomach iborasini keltirish mumkin. Bu birlikning denotativ tarjimasi (qornida kapalaklar uchmoqda) mantiqan to'g'ri bo'lsa-da, u real nutqda qo'llanmaydi. Shu sababli u konnotativ ma'nosiga ko'ra hayajonlanmoq yoki yuragi hapriqmoq tarzida tarjima qilinadi.

Amaliy kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, emotsional leksikani tarjima qilishda denotativ moslik har doim yetarli emas. Doim tarjimon konnotativ ma'noni, madaniy kontekstni va nutq vaziyatini ham hisobga olishi lozim. Aks holda, tarjima mazmun jihatidan to'g'ri bo'lsa ham, emotsional ta'sir kuchini yo'qotishi mumkin.

3. Tarjima jarayonida ekvivalentlik muammosi

Tarjimashunoslikda ekvivalentlik muammosi muhim o'rin tutadi. Biroq emotsional leksikani tarjima qilishda to'liq ekvivalent topish har doim ham mumkin emas. Ekvivalentlik quyidagi turlarga bo'linadi:

To'liq ekvivalentlik: *happy* – xursand
Qisman ekvivalentlik: *upset* – xafa / bezovta
Ekvivalentsizlik: ayrim madaniy iboralar
Inglizcha ibora: “kick the bucket”

O'zbek tilida so'zma-so'z tarjimai “chelakni tepmoq” bo'lib, ushbu ma'nosi tushunarsiz. Tarjima sifatida esa odatda “vafot etmoq” yoki “omonatini topshirmoq” ishlatiladi.

Tarjimon emotsional birliklarni tarjima qilishda faqat lug'aviy ma'noga tayanib qolmasdan, balki ularning qo'llanilish konteksti, uslubi hamda pragmatik mazmunini ham inobatga olishi zarur.

Xulosa

Ingliz va o'zbek tillarida emotsiyani ifodalovchi leksik birliklar semantik jihatdan murakkab va ko'p qatlamli tizimni tashkil etadi. Ularning asosiy xususiyatlari denotativ va konnotativ ma'nolarning uyg'unligida ko'rishimiz mumkin.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, emotsional leksikani tarjima qilish jarayonida to'liq ekvivalentlikka erishish har doim ham mumkin emas. Bu esa tarjimondan yuqori darajadagi lingvistik va madaniy kompetensiyani talab qiladi.

Shuningdek, emotsional birliklarni to'g'ri tarjima qilishda kontekst, pragmatika va madaniy omillarni hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Arnold, I.V. The English Word. – Moscow: Higher School, 1986.
2. Newmark, P. A Textbook of Translation. – London: Prentice Hall, 1988.
3. Nida, E.A. Language and Culture: Contexts in Translating. – Shanghai: Foreign Language Education Press, 2001.
4. Crystal, D. A Dictionary of Linguistics and Phonetics. – Oxford: Blackwell, 2008.
5. Lyons, J. Semantics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1977.
6. Rahmatullayev, Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Universitet, 2006.